

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida"gi 274- son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogari va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

17 881




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4 330



Oilaviy korxonona

265



Unitar korxonona

10 627



Xususiy korxonona

58




Aksiyadorlik jamiyati

416




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
ming birlik



xususiy korxonona
ming birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'xis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'xis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-avgust oylarida 4 100 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 573 ta, xususiy korxonalar – 709 ta, oilaviy korxonalar – 644 ta, unitar korxonalar – 21 ta va boshqalar – 153 tani tashkil etdi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,7 %), Qo'qon shahar (13,1 %), Marg'ilon shahar (10,1 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Oltiariq tumani (4,6 %), Quva tumani (4,5 %), O'zbekiston tumani (4,4 %), Buvayda tumani (4,3 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (3,8 %), Bag'dod tumani (3,5 %), Rishton tumani (3,3 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Quvasoy shahar (3,1 %), Beshariq tumani (3,3 %), Furqat tumani (2,4 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (14,2 %), Qo'qon shahar (11,9 %), Marg'ilon shahar (10,3 %), Uchko'prik tumani (5,0 %), Dang'ara tumani (4,0 %), Oltiariq tumani (5,4 %), Quva tumani (5,2 %), O'zbekiston tumani (3,8 %), Buvayda tumani (4,2 %), Toshloq tumani (5,1 %), Farg'ona tumani (4,0 %), Bag'dod tumani (4,1 %), Rishton tumani (4,0 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (3,8 %), Beshariq tumani (4,5 %), Furqat tumani (2,7 %), So'x tumani (2,4 %), Yozyovon tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 4 330 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 771 taga yoki 121,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 142 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 613 taga yoki 117,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 644 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 214 taga yoki 24,9 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	2 570	3 529	4 142
<i>shu jumladan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	241	268	280
Sanoat	1248	1616	1872
Qurilish	34	43	53
Savdo	342	678	886
Tashish va saqlash	60	77	78
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	348	478	554
Axborot va aloqa	31	32	35
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	21	32	45
Boshqa turlar	245	305	339

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 446 tani tashkil etib, ulardan 429 tasi yoki 96,2 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 78 taga yoki 121,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 34 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	180	247	366	429

Shu jumladan:


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	5	23	25
Sanoat	131	171	217	250
Qurilish	4	5	9	12
Savdo	15	30	65	73
Tashish va saqlash	4	6	6	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	10	13	15
Axborot va aloqa	3	2	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	8	8
Boshqa turlar	9	13	21	30

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Farg'ona viloyati	446	301	145
Oltiariq tumani	20	13	7
Qo'shtepa tumani	8	5	3
Bag'dod tumani	10	8	2
Buvayda tumani	8	7	1
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	16	10	6
Uchko'prik tumani	15	10	5
Rishton tumani	12	10	2
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	14	10	4
O'zbekiston tumani	22	20	2
Farg'ona tumani	25	14	11
Dang'ara tumani	18	9	9
Furqat tumani	6	3	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	152	101	51
Qo'qon shahar	58	36	22
Quvasoy shahar	25	20	5
Marg'ilon shahar	22	17	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona shahrida 152 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 34,1 %), Qo'qon shahar 58 ta (13,0 %), Quvasoy shahar 25 tani (5,6 %), Farg'ona tumani 25 ta (5,6 %), Oltiariq tumani 20 ta (4,5 %), O'zbekiston tumani 22 ta (4,9 %) hamda Dang'ara tumanida 18 tani (4,0 %) tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari soni		01.09.2020 jamiga nisbatan %
	01.09.2019- yil	01.09.2020- yil	
Farg'ona viloyati	28 572	33 369	100,0
Oltiariq tumani	1 270	1 523	4,6
Qo'shtepa tumani	882	1 008	3,0
Bag'dod tumani	922	1 116	3,3
Buvayda tumani	1 283	1 468	4,4
Beshariq tumani	785	993	3,0
Quva tumani	1 219	1 476	4,4
Uchko'prik tumani	1 553	1 809	5,4
Rishton tumani	789	976	2,9
So'x tumani	636	747	2,2
Toshloq tumani	1 255	1 500	4,5
O'zbekiston tumani	1 250	1 431	4,3
Farg'ona tumani	979	1 181	3,5
Dang'ara tumani	1 410	1 615	4,8
Furqat tumani	620	759	2,3
Yozyovon tumani	533	642	1,9
Farg'ona shahar	5 194	5 866	17,7
Qo'qon shahar	4 057	4 575	13,7
Quvasoy shahar	859	1 038	3,2
Marg'ilon shahar	3 076	3 646	10,9

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (13,9 %), Qo'qon shahar (11,9 %), Marg'ilon shahar (10,5 %), Uchko'prik tumani (5,0 %), Dang'ara tumani (4,0 %), Oltiariq tumani (5,5 %), Quva tumani (5,2 %), O'zbekiston tumani (3,8 %), Buvayda tumani (4,2 %), Toshloq tumani (5,2 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (4,2 %), Rishton tumani (3,9 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (3,9%), Beshariq tumani (4,5 %), Furqat tumani (2,7 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri-axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyat Statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 249-87-34**